

Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning innovatsion usullari

Obidjonova Farangiz Olimjon qizi

+998959206858

SamDChTI Ingliz 2 fakulteti 2-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining til o'rghanishga bo'lган qiziqishlarini oshirish uchun ingliz tili o'qitishning samarali,zamonaviy va innovatsion o'qitish metodlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinflar ,innovatsion metodlar ,qiziqarli o'yinlar,pantomime

Kirish:Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yoshlarning ham chet tillarini o'rghanishga bo'lган qiziqishlari ham oshdi shu bilan birga davlatimiz tomonidan til o'rghanish uchun ko'plab shart sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda.

So'nggi paytlarda har qanday yoshdagi odamlar orasida ingliz tilini o'rGANADIGANLAR soni ortib bormoqda.Ammo til o'rghanish ham yosh davrlariga bog'liq.Hatto olimlar ham bolalar kattalarga nisbatan tillarni tez va oson o'zlashtirishlarini isbotlagan.Buning asosiy sabablari bolalarning miyasi kattalarnikidan ko'ra ko'proq narsani egallashga qodir ekanligi,ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi ,kattalarga qaraganda ularning vaqtি ko'pligi va shu bilan birga o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridir.

Yana shuni aytib o'tish joizki 6-7 bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas,mexanik tarzda yodlaydi .Shu sababli ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili o'rgatish jarayonida grammatic tushuncha berishdan boshlamaslik zarur.Aks holda ingliz tili o'rghanishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatish va o'rghanishga bo'lган qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin.

Ko'rish orqali eslab qolish.Ma'lumki kichik yoshdagi bolalar asaosan ko'rgan narsalarini eshitgan narsalaridan ko'ra ko'proq yodda saqlab qolishadi.Shunday ekan ularga darsni turli xil plakatlar,ko'rgazmali qurollar,kundalik hayotda ko'p

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali ularga yangi so'zlarni o'rgatish va ularni gapda qo'llashlarini talab etish joiz. Masalan daftar (noutbook), doska (blackboard).

Qo'shiq hamda she'rlar yordamida tushinish yoki eslab qolish mushkul bo'lgan so'zlarni musiqaga solish yordamida o'rganish. Bunda bola nafaqat so'zlarni yaxshi eslab qoladi, shu bilan birga og'zaki nutq ham rivojlanadi.

Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish; Til o'rgatishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni juda katta hisoblanadi. Bu metod dars davomida o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini yanada oshiradi va darsda faol bo'lмаган о'quvchilarni ham yaxshiroq qatnashishga undaydi. Bunga quyidagi o'yinlar misol bo'la oladi.

“Pantomima” (pantomime) Bu o'yinda o'qituvchi o'quvchilarga biron bir so'zni aytadi o'quvchi uni ko'rsatadi. Qolgan o'quvchilar esa bu orqali so'zni topib inglizcha nomini aytadi.

“Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) Bunda o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tili o'rgatishning samarali usullaridan biri hisoblanadi va ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini inglizcha topishadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini majburiyat sifatida emas, balki innovatsion metodlar, qiziqarli o'yinlar, qo'shiqlar yordamida o'rgatish ularning tilni kelajakda mukammal o'rganishlariga poydevor bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turdaliyeva G.N “Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar”//2020
2. Jumaniyozova H.”bolalarga til o'rgatish metodikasi.Fled.uz
3. Bekmuratova U.B “Ingliz tili o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish//Toshkent 2012.
4. Koshimov, U; Yokubov, I. Inglis tili o'kitish usullari. – T.: Shark nashriyot-matbaa aktsiadorlik kompaniyasi Bosh taxiriyyat, 2003. – 56 b

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

5. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases 2019
6. Zubaydova Nilufar Nimatillaeva, The importance of teaching vocabulary 2019
- 7.Zubaydova Nilufar Nigmatullaeva. The Teaching English for pecific purposes. 2019